

# 9-sinf O'zbekiston tarixi

## 12-dars: Qo'qon xonligining bosib olinishi.

### Darsning maqsadlari:

#### 1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga Qo'qon xonligidagi ichki siyosiy nizolarning kuchayishi, XIX asrning 70-yillarida Qo'qon xonligida ko'plab qo'zg'olonlar, Andijonga uyushtirilgan hujum, Namanganning bosib olinishi, 1876 yil 18 fevralda Qo'qon xonligining tugatilganligi to'g'risidagi farmon e'lon qilinishi va Qo'qon xonligi hududi o'rnida Farg'ona viloyatining tashkil qilinishi, turkmanlarning bo'ysundirilishi, mag'lubiyat sabablari va oqibatlari haqida tushunchalar berish.

Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

#### 2. Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

O'quvchilarning ozod va hur yashashga bo'lgan munosabatlarini rivojlantirish;

Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

#### 3. Rivojlantiruvchi maqsad:

Mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

O'quvchilarda umumlashma xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish.

### O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Yangi bilim beruvchi, bilimlarni shakllantiruvchi
Dars metodi:	"Interfaol metodlar", "Guruhlarda ishlash", "Savol-javob", "Atamalar va savollar"
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

### DARSNING BLOK CHIZMASI:

No	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	8 daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	14 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa



### Yangi dars mazmunining tayanch tushunchalari, atamalari, tarixiy sana va nomlar:

Qo'qon xonligi, Marg'ilon, Namangan, Andijon, Xudoyorxon, Nasriddinbek, Po'latxon, Skobelev, 1876-yil 19-fevral, Farg'ona viloyati.



# DARSNING BO'RISHI

## I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.

## II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

### “Guruhlarda ishlash”



O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzuga oid atamalardan o'z guruhlariga nom qo'yib olishadi hamda guruhga qo'yilgan nomga qisqacha ta'rif berishadi.

**1-topshiriq: Savol-javob.** Darsning bu qismi quyidagi savollar yozilgan kartochnalar yordamida amalga oshiriladi.

**1-kartochka:** Xiva xonligining bosib olinishidagi dastlabki harakatlar haqida gapiring.

**2-kartochka:** Xivaga qarshi K. P. Kaufman nima uchun uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rdi?

**3-kartochka:** Xivaga qarshi yurish qanday tashkil qilindi?

**4-kartochka:** Gandimiyon shartnomasi Xiva xonligi ahvoriga qanday ta'sir ko'rsatdi?

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

## III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish:

Bu vazifa quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

1. **Qo'qon xonligidagi ichki siyosiy nizolarning kuchayishi;**
2. **Andijonga uyushtirilgan hujum;**
3. **Namanganning bosib olinishi;**
4. **Turkmanlarning bo'ysundirilishi;**
5. **Mag'lubiyat sabablari va oqibatlari;**

### Qo'qon xonligidagi ichki siyosiy nizolarning kuchayishi

Rossiya imperiyasi XIX asrning 50-60-yillarida harbiy istilochilik yo'li bilan Qo'qon xonligi hududining bir qismini bosib oldi. K. P. Kaufman xonlikda o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida 1868-yilda xon bilan shartnoma tuzdi. Unga ko'ra xonlikda Rossiya savdogarlariga katta imkoniyatlar berildi. Bu davrda xonlik yerlari ancha qisqarib, xazinaga tushadigan daromadlar kamaydi. Urush natijasida ko'rilgan zararlar xalq ommasi zimmasiga tushdi, soliq va majburiyatlar ko'paydi. Buning oqibatida xonlikda ichki nizolar, xalq noroziligi kuchaydi.



M. D. Skobelev

XIX asrning 70-yillarida Qo'qon xonligida ko'plab qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Ulardan biri 1875-yil bahorida avj olib, unga Mulla Is'hoq Mullo Hasan o'g'li «Po'latxon» nomi bilan rahbarlik qildi. Qo'qon hukmdori Xudoyorxon qo'zg'olonni bostirish uchun Abdurahmon Oftobachi, Iso Avliyolar boshchiligidagi qo'shin yubordi. Lekin ular 17-iyulda qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketdi. Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek ham qo'zg'olonchilarga qo'shilgandan so'ng, 20-iyulda Xudoyorxon K. P. Kaufmandan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Uning ukasi va ikkinchi o'g'li ham qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketgach, xon general-gubernatordan panohtalab Toshkentga ketdi. K. P. Kaufman uni Orenburgga jo'natdi. Xudoyorxon Orenburgdan Hindiston orqali Makkaga boradi va u yerdan qaytib kelayotganda kasalga chalinib, 1882-yilda Afg'onistonda vafot etdi.

Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek ham qo'zg'olonchilarga qo'shilgandan so'ng, 20-iyulda Xudoyorxon K. P. Kaufmandan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Uning ukasi va ikkinchi o'g'li ham qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketgach, xon general-gubernatordan panohtalab Toshkentga ketdi. K. P. Kaufman uni Orenburgga jo'natdi. Xudoyorxon Orenburgdan Hindiston orqali Makkaga boradi va u yerdan qaytib kelayotganda kasalga chalinib, 1882-yilda Afg'onistonda vafot etdi.

Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek ham qo'zg'olonchilarga qo'shilgandan so'ng, 20-iyulda Xudoyorxon K. P. Kaufmandan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Uning ukasi va ikkinchi o'g'li ham qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketgach, xon general-gubernatordan panohtalab Toshkentga ketdi. K. P. Kaufman uni Orenburgga jo'natdi. Xudoyorxon Orenburgdan Hindiston orqali Makkaga boradi va u yerdan qaytib kelayotganda kasalga chalinib, 1882-yilda Afg'onistonda vafot etdi.

Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek ham qo'zg'olonchilarga qo'shilgandan so'ng, 20-iyulda Xudoyorxon K. P. Kaufmandan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Uning ukasi va ikkinchi o'g'li ham qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketgach, xon general-gubernatordan panohtalab Toshkentga ketdi. K. P. Kaufman uni Orenburgga jo'natdi. Xudoyorxon Orenburgdan Hindiston orqali Makkaga boradi va u yerdan qaytib kelayotganda kasalga chalinib, 1882-yilda Afg'onistonda vafot etdi.

### Andijonga uyushtirilgan hujum

Po'latxon qo'zg'olonining kuchayib ketishidan xavotirga tushgan mustamlakachi hukumat ularni tor-mor qilish uchun Andijonga hujum qildi. Chunki qo'zg'olonchilar-ning asosiy kuchlari shu yerda joylashgan edi. General M. Skobelev boshchiligidagi hujum 1875-yil oktabr oyi boshida boshlandi. Shahar kun davomida to'plardan o'qqa tutildi.





Qo'qon xoni  
Xudoyorxon

Andijon aholisi mudofaa janglarida shaharning har bir qarich yen uchun jon-jahdi bilan kurashdi. M. Skobelev boshchiligidagi qo'shinning dastlabki urinishlari jiddiy qarshilikka uch-radi. Shundan so'ng podsho hukumati qo'shinlari barcha imorat va xonadonlarga o't qo'yib, shaharni yong'in ichida qoldirdi. Shahar to'xtovsiz ravishda artilleriyadan o'qqa tutib turildi. Bu shahar himoyachilarini og'ir ahvolga solib qo'ydi. Uch soat davom etgan betinim o'qqa tutishdan so'ng kechqurun podsho hukumati qo'shinlari yana hujumga o'tdi. Lekin bu hujum ham natija bermadi. Erta tongdan bosh lab yana to'plardan kun bo'yi o'q yog'dirildi. Biroq shahar himoyachilarining qarshi hujumga o'tishi podsho qo'shinlarini chekinishga majbur qildi. Shahar 1876-yil yanvarda uyushtirilgan ikkinchi hujum natijasida qiyinchilik bilan egallandi.

## Namanganning bosib olinishi

Rossiya imperiyasining general M. Skobelev boshchiligidagi qo'shinlari 1875-yil 18-oktabrda Naman-ganga joylashib, K. P. Kaufman qo'mondonligi ostidagi harbiy kuchlarga qo'shildi. Mustamlakachi qo'shinlarga qarshilik harakatlari Namanganda bir oy davom etdi. Shaharni ozod etish uchun atrofdagi qishloq-lardan qo'shimcha kuchlar keldi. Shunga qaramasdan, podsho qo'shinlari tomonidan shaharning yarmi qo'lga kiritildi. Podsho hukumati harbiy qo'shini uch kun davomida shahar qal'asida turdi. Ikki tomon o'rtasida janglar 1876-yil yanvar oyi oxirigacha davom etdi. General M. Skobelev boshchiligidagi qo'shin fevral oyiga kelibgina harbiy qurol ustunligi bilan g'alabaga erishdi. Po'latxon va uning tarafdorlari qatl qilindi.

1876-yil 19-fevralda podsho hukumatining Qo'qon xonligining tugatilganligi to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Shu tariqa Qo'qon xonligi hududi o'rnida Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi Farg'ona viloyati tashkil qilindi. Viloyatga Qo'qon xonligini bosib olishdagi harbiy yurishlar-ga rahbarlik qilgan general M.Skobelev harbiy gubernator etib tayinlandi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoda olib borgan istilochilik yurishlari natijasida Qo'qon xonligi Buxoro va Xiva davlatlaridan farqli ravishda davlat sifatida butunlay tugatildi. Uning o'rnida mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan an'anaviy turmush tarziga mos ma'muriy boshqaruv tizimi va hududiy birliklari tugatilib, imperiya manfaatlariga mos keladigan, ayni paytda mahalliy aholini boshqarishi uchun mustamlaka ma'muriyatga qulay bo'lgan yangi boshqaruv tizimi qaror topdi.

Farg'ona vodiysining bo'ysundirilishi bilan Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga istilochilik yurishining uchinchi bosqichi (1873—1879) nihoyasiga yetdi. Bu yurishlar natijasida O'rta Osiyoning katta hududi bosib olinib, Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylantirildi.

## Turkmanlarning bo'ysundirilishi

O'rta Osiyoni bosib olishning to'rtinchi bosqichi Amudaryo va Kapettog' oralig'idagi Qoraqum sarhadlaridagi turkmanlarga qarshi qaratildi. 1879-yil iyulda Angliya Afg'oniston hududining bir qismini bosib olgandan so'ng inglizlar uchun O'rta Osiyoga yoM ochildi. Shuning uchun 1879-yil iyulda Krasnovodskdan I. Lazerev boshchiligidagi harbiy qo'shin turkmanlar yashaydigan hududlarga jo'natildi. Bu yo'nalishdagi dastlabki harakatlarda podsho hukumati qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Qo'qon xonligiga qarshi harbiy yurishlarda tajribasi katta bo'lgan general M. Skobelev boshchiligidagi qo'shin 1880-yil may oyida ikkinchi yurishni boshladi. Uch oy davom etgan janglardan so'ng qamalga olingan turkmanlar qal'asi — Go'ktepa qo'lga olindi. Buning natijasida istilo qilingan b ati tashkil qilindi. Turkmanlarning batamom bo'ysundirilishi esa 1885-yildagina amalga oshirildi.

Turkmanlarning asosiy qal'asi Go'ktepa bo'ysundirilgach, 1881-yilda Rossiya va Eron o'rtasidagi chegaralar belgilandi. Shu yili Sharqiy Turkistonning Ili o'lkasidagi qo'zg'olon podsho hukumati qo'shinlari tomonidan bostirilishi bilan Rossiya va Xitoy o'rtasidagi chegaralar ham belgilandi.

Shu harakatlar bilan Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo hududidagi istilochilik yurishlarining to'rtinchi bosqichi (1880-1885) tugadi.

Shunday qilib, istilo qilingan hududlarda besh viloyat, ya'ni *Sirdaryo, Yettisuv, Farg'ona, Samarqand* va *Kaspiyorti viloyatlari* tashkil qilinib, ular Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi.

Rossiya imperiyasining XIX asr o'rtalaridan boshlab amalga oshirilgan harbiy istilochilik yurishlari natijasida Buxoro amirligi va Xiva xonligi imperiyaning protektoratiga aylantirildi. Qo'qon xonligi esa batamom tugatildi.

## Mag'lubiyat sabablari va oqibatlari

XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo xalqlari Rossiya imperiyasining harbiy yurishlariga qarshi mardonavor kurash olib bordi. Keng xalq ommasi vatan mustaqilligi va ozodligini mustamlakachilardan himoya qilish uchun qahramonlarча jang qildi. Lekin bu davrdagi ichki nizolar, o'zaro urushlar, hukmdorlarning uzoqni ko'zlab ish olib bormaganligi oxir-oqibat yurtning mustaqilligi yo'qotilib, o'zgalarga tobe bo'Mishga olib keldi.

O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishiga, Qo'qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro amirligining mag'lubiyatga uchrashiga quyidagilar sabab bo'ldi: **Birinchi**dan, Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari Rossiya imperiyasiga nisbatan harbiy va iqtisodiy rivojlanish sohasida ancha orqada edi. Ayniqsa, ularning harbiy sohadagi ahvoli o'sha davrda jahon miqyosidagi taraqqiyot darajasidan past bo'lgan. Xonliklarning tashqi siyosatda odilona siyosat olib bormaganliklari oqibatida ularning o'zlari tashqi dunyodan ajralib qolgan edi. **Ikkinchi**dan, uchta davlat o'rtasida o'zaro do'stona munosabatlar, hamkorlik va birdamlik yo'q edi. Ulardagi siyosiy tizim, davlat boshqaruvi zamonaviy boshqaruvdan uzoq bo'lib, o'rta asrlarga xos yakka hokimiyatchilikka, zo'raonlikka asoslangan edi. Buning oqibatida ichki ziddiyatlar ko'payib, nizolar kuchaydi. O'zaro urushlar, taxt uchun kurashlar avj oldi. **Uchinchi**dan, urush harakatlari vaqtida xonlar biri ikkinchisiga yordam ko'rsatmadi va o'z tinchligini o'ylab befarq qarab turdi. Bu esa har bir xonlikning alohida tor-mor etilishini yengillashtirdi. Shularning barchasi Rossiya imperiyasi hukuinatiga qo'l keldi va vaziyatdan foydalanib mamlakatni mustamlakaga aylantirdi.



#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:



Yangi mavzuni mustahkamlash quyidagi topshiriqlar asosida olib boriladi:

**1-topshiriq:** 2 ta guruhga guruhga yangi mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollar beriladi:

Plakatning oldi tomoniga o'tilgan mavzularga oid atamalar, tarixiy sana, nom yoki ism yoziladi. Guruhlar plakatga yozilgan ixtiyoriy atamalar, tarixiy sana, nom yoki ismga qisqa tarif berib o'tishadi. So'ngra plakatning orqa tomonidagi savollarga javob berishadi.

#### GURUHLARGA BERILADIGAN SAVOLLAR:

**Gandimiyon**

Qo'qon xonligining bosib olinishiga nimalar sabab bo'lgan?

**Kontributsiya**

Qo'qon xonligini bosib olish uchun jang ko'proq qayerlarda bo'ldi?

**Pristan**

Mag'lubiyat sabablari va oqibatlarini sanab bering

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

#### V. Dars yakunlarini chiqarish:



O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish;

Baholarni e'lon qilish.

O'quvchilar aytib o'tgan fikrlari to'planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so'nggi xulosasi chiqariladi

#### VI. Uyga vazifa:



Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.

Rasmlar orqali bayon etib kelish

Kelgusi darsda o'tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo'shimcha manbalarni izlab topish.



Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:

---

---

---

---

---


---

---


---



## KO'RGAZMALI QUROLLAR



**O'rta Osiyo XIX asr oxirida**



**Qo'qon qal'asi davozasi**

